

TARIX VA ZAMONAVIYLIK UYG‘UNLIGI : YANGI O‘ZBEKISTONDA “IPAK YO‘LI” BRENDI ORQALI TURIZMNING YANGI BOSQICHGA KO‘TARILISHI

Xalilova Sevara

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy rassomlik va dizayn instituti

2-kurs talabasi

Annatasiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston turizm sohasida “Ipak Yo‘li” brendi orqali tarixiy meros va zamonaviylikning uyg‘unligi masalasi taxlil qilindi. Maqola tarixiy qadiryatlarni saqlab qolish bilan birga, ularni zamonaviy turizm infratuzilmasi va marketing strategiyalari orqali jahon miqqiyosida targ‘ib etish yo‘llarini o‘rganadi. Shuningdek, tarixiy meros va zamonaviy rivojlanish konsepsiyasining integratsiyasi orqali mintaqaviy iqtisodiy va madaniy salohiyatini oshirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqotda “Ipak Yo‘li” brendining turizm sohasidagi ro‘li, uning xalqaro maydondagi o‘rni hamda kelajak istiqbollari yoritildi. Mazkur yondashuv O‘zbekistonning global turizm xaritasida raqobatdoshligini oshirish va barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Ipak Yo‘li, Tarixiy me‘ros, Zamonaviylik, Turizm brendi, Turizm infratuzilmasi, Madaniy turizm, Turizm marketingi, Mintaqaviy rivojlanish, Xalqaro hamkorlik, Barqaror turizm, O‘zbekiston turizmi.

Turizm bugungi global dunyoda nafaqat dam olish, balki iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p qirrali faoliyat turiga aylangan. U insoniyat tarixida qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, zamonaviy shakidagi uyushgan turizm XIX asr boshlaridan boshlab shakillana boshladi. Turizm orqali insonlar nafaqat yangi hududlarni kashf etdilar, balki madaniyatlararo muloqot, bilim va tajriba almashinuvini ham amalga oshiradilar.⁶

Ushbu maqolada turizmning tarixiy ildizlari, shakillanish bosqichlari va bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Turizm tushunchasi va mohiyati haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, “Turizm” atamasi fransuz tilidagi tour-sayr, sayohat so‘zidan olingan bo‘lib, jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan tashqariga sog‘lomlashtirish, ma‘rifiy, kasbiy yoki boshqa maqsadlarda vaqtincha borishni anglatadi. Turistik faoliyat odatda kamida 24 soat va 365 kundan oshmagan muddat davomida, safar qilinayotgan hududda haq to‘lanadigan ish bilan shug‘ullanishni o‘z ichiga olmaydi.⁷ Turizm faoliyati quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin.

⁶ M.S.Muhammedova Madaniy turizm tarixi nazaryasi(o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2023 4-bet

⁷ M.S.Muhammedova Madaniy turizm tarixi nazaryasi(o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2023.5-bet

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Dam olish va sog'lomlashtirish, tarixiy, madaniy va diniy obidalarni ziyorat qilish ilmiy yoki kasbiy-amaliy safarlar, eko-turizm, arxeologik turizm, tarixiy turizm, diniy turizm, etnografik turizm, gastronomik turizm, festival, tadbirlar va bir nechta turizm turlariga bo'linadi. Mamlakatimizda turizm sohasi mustaqillik yillarining dastlabki bosqichlaridanoq ustuvor davlat siyosati darajasida ko'rib chiqilgan. Sohani izchil rivojlantirish maqsadida zarur tashkiliy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqildi, qator muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va bu yo'nalishdagi ishlar bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda.

O'zbekistonni jahon turizm xaritasida munosib o'rin egallagan davlatga aylantirish, milliy turizm infratuzilmasini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish, shuningdek, turizm xizmatlari sifatini oshirish, avvalo, mustahkam huquqiy asos zarur edi.

Masalan, 1999-yilda "O'zbekiston Respublikasida turizm to'risida" gi Qonunning qabul qilinishi soha rivoji uchun muhim bosqich bo'ldi. Mazkur hujjat orqali turizm faoliyatining asosiy tamoyillari ishtirokchilar huquq va majburiyatlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari belgilab berildi. Keyingi yillarda Prezident farmonlari, qarorlar va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan turli konsepsiyalar, dasturlar va normative hujjatlar asosida turizm sohasida keng ko'lamli islohatlar amalga oshirildi.

Xususan, 2016-yildan boshlab turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. "Yagona sayohlik vizasi" (e-viza), "Open Sky" (ochiq osmon) rejimi, vizasiz rejimni bosqichma-bosqich joriy etish, shuningdek, yangi turistik yo'nalishlar va klasterlarni rivojlantirish kabi chora-tadbirlar turizm sohasini tubdan jaddallashtirishga xizmat qilmoqda.

Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra:⁸

2016-yida O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyirgan xorijiy sayyohlar 2 milliondan oshgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich sezilarli darajada o'sib, 6,6 millondan ortiqqa yetdi. Bu ma'lumotlar O'zbekiston turizm sanoatining so'ngi yillarda yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etishni ko'rsatdi. Xalqaro sayyohlar oqimining uch barobar oshishi mamlakatning jahon turizm bozoridagi o'rnining mustahkamlanishi, shuningdek, uning geografik va madaniy salohiyatining samarali targ'ib qilinishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ichki turizm sohasida ham sezilarli faollashuv kuzatilmoqda. 2023-yilda mamlakat Ichida sayohat qilgan fuqarolar soni 15 milliondan oshib, ichki turizmning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini va ahamiyatini oshirayotganligini ko'rsatadi. Ichki sayyohlik faollikgi nafaqat fuqarolarning madaniy va tarixiy merosga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi balki, mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston hukumati tomonidan turizm sohasining rivojlanishini ta'minlash va bu yo'nalishdagi salohiyatni maksimal darajada ro'yobga chiqarish maqsadida bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan, xorijiy sayyohlar uchun vizasiz rejim va elektiron reja tizimining joriy etilishi mamlakatga kirishni sezilarli darajada

⁸ UNWTO. (2024). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.

yengillashtirdi hamda global turizm jarayonlariga integratsiyalashuvni kuchaytirdi.

Ushbu chora-tadbirlar xalqaro sayyohlik oqimini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratdi.

Shuningdek, turizm sohasida innovatsiyon texnologiyalarni joriy etish, transport va mehmonxona xizmatlarini takomillashtirish, shuningdek, mahalliy aholi ishtirokida turizm rivojlanishiga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston salohiyatini kengaytirishda davom etmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, ish o'rinlari yaratishga va ijtimoiy farovonlikning oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston fuqarolar uchun 90 dan ortiq mamlakatga vizasiz kirish imkoniyati mavjud, shuningdek, 70 dan ortiq mamlakat fuqarolari O'zbekistonga vizasiz yoki soddalashtirilgan elektron viza orqali kelishlari mumkin. Shuni takidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasida ziyorat turizmi sohasining rivojlanishi milliy turizm strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tiborga olmoqda. Samarqand, Buhoro, Xiva, Toshkent kabi tarixiy shaharlar o'zining boy madaniy va tarixiy merosi bilan ziyoratchilar uchun katta javobgarlikka ega. Ushbu shaharlarda joylashgan tarixiy-madaniy obidalar, jumladan madrasalar, masjidlar, qabristonlar va boshqa ziyoratgohlar, turizm yo'nalishining rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Islom madaniy merosining markazi sifatida tashkil etilgan muassasaning ochilishi ziyorat turizmini yangi darajaga ko'tarish, ilmiy tadqiqot faoliyatini kengaytirish va diniy madaniyatni targ'ib qilishda muhim omil bo'ldi. Shuningdek, "Ipak Yo'li" brendining jahon miqqiyosida rivojlantirilishi O'zbekistonni nafaqat tarixiy yo'nalish sifatida, balki zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan jihozlangan markaz sifatida ham tanitmoqda. Bu brendning xalqaro maydondagi obro' e'tiborining oshishi mintaqaning transport, savdo va madaniy almashinuv tarixiga asoslangan turizmni rag'batlantirishga xizmat qiladi. "Ipak Yo'li" brendi O'zbekiston turizm va madaniy merosini dunyo miqqiyosida targ'ib qilishda muhim vosita hisoblanadi. Tarixan Sharq va G'arbni bog'lagan savdo yo'li sifatida tanilgan "Ipak Yo'li" nafaqat savdo aloqalarining rivojlanishiga xizmat qilgan balki madaniy, diniy va ilmiy almashinuvlarning markazi bo'lgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy meros zamonaviy turizm sanoatining rivojlanishi uchun noyob brendga aylantirilmoqda. "Ipak Yo'li" Brendining tarixi va ahamiyati esa qadimiy savdo yo'lining ko'prigi sifatida Sharq va G'arb madaniyatlarini bog'lab, ming yillar davomida mintaqaviy hamda global aloqalarni mustahkamladi. Ushbu yo'l orqali nafaqat ipak va boshqa tovarlar, balki san'at, ilm-fan, din va falsafa ham tarqaldi. O'zbekiston hududi, ayniqsa Samarqand, Buhoro, Xiva va Toshkent shaharlari ushbu muhim yo'lining markazlari bo'lgan. Bugungi kunda O'zbekiston hukumati "Ipak Yo'li" brendining rivojlanishiga katta e'tibor qaratmoqda, chunki ushbu brend mamlakatning turizm salohiyatini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. "Ipak Yo'li" brendi O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosini xalqaro miqqiyosda samarali targ'ib qilish vositasiga aylangan. Brend ostida tashkil etilgan turistik marshutlar, turizm majmualari va ko'rgazmalar sayohchlarni jalb qilishda muhim rol o'ynaydi va mamlakatga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi. Misol uchun, "Silk Road Samarkand" majmuasi va "Ipak Yo'li" tematik yo'llari xalqaro

sayyohlar uchun noyob tajriba yaratadi, ular orqali qadimiy savdo yo'lining tarixiy shaharlarini, me'moriy yodgorliklarini o'rganish mumkin. Bu nafaqat madaniy merosni saqlashga balki, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga ham yordam beradi. "Ipak Yo'li" brendining rivojlanishi O'zbekiston turizm sanoatiga sezilarli iqtisodiy foyda keltirmoqda. Xalqaro sayyohlar oqimining ko'payishi natijasida turizmga oid xizmatlar, transport, mehmonxona va savda tarmoqlari faollashmoqda. Bu esa mahalliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekistonda turistik zonalar va klasterlar yaratildi. Samarqandda barpo etilgan "Silk Road Samarkand" turizm majmuasi mamlakat turizm salohiyatini kengaytirish va xalqaro sayyohlarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek Toshkent viloyatida "Amirsoy" tog'-chang'i kurorti zamonaviy xizmatlar va sport turizmi uchun qulay sharoitlar yaratib, yilning barcha fasllarida faoliyat yuritmoqda.

Buxorov a Xorazm viloyatlarida tashkil etilgan yangi turizm klasterlari esa hududiy rivojlanishni rag'batlantirish, mahalliy aholi badligini oshirish hamda turizm sohasida innovatsiyalarni tatbiq etishda muhim o'rin tutadi. Xalqaro tadbirlar va ko'rgazmalarning o'tkazilishi esa, O'zbekistonning turizm sohasidagi jahon maydonida faol ishtiroki va halqaro tadbirlarini o'z hududida tashkil etishi mamlakatning turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, 2023-yil Samarqand shahrida Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasi sessiyasining muvaffaqiyatli o'tkazilishi O'zbekistonning global turizm hamjamiyatidagi o'rnining mustahkamlanishi hamda xalqaro standartlarga muvofiq xizmat ko'rsatish salohiyatining oshganligini ko'rsatadi.⁹ Bu yirik xalqaro tadbirlar mamlakatni turizm sohasida ishonchli va jozibador hamkor sifatida tanitadi, shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, bunday tadbirlar mahalliy turizm sohasi vakillarining global tarmoqqa kirishini ta'minlab, ularning xalqaro standartlar va talablar asosida xizmat ko'rsatishini rag'batlantiradi. Bu esa xizmat sifatining yaxshilanishi, raqobatbardoshlikning oshishi, va yangi innovatsiyalarni joriy etish uchun sharoit yaratadi.

Xalqaro hamkorlikning rivojlanishi esa turizm sohasida sarmoyalar oqimini ko'paytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mahalliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqaro darajada o'tkaziladigan ko'rgazmalar va konferensiyalar madaniyatlararo almashinuvni kuchaytiradi, turizmning ijtimoiy-iqtisodiy rolini yanada oshiradi hamda mamlakatning global turizm xaritasidagi pozitsiyasini yaxshilaydi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning turizm siyosatida xalqaro tadbirlar tashkil etish va ularda faol ishtirok etish doimiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Kelgusida ham O'zbekistonning turizm sohasidagi strategik maqsadlari doirasida, xalqaro miqyosda turizmni rivojlantirish uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

Bu borada ilg'or texnologiyalarni joriy etish, turizmning turli segmentlarini diversifikatsiya qilish, ekologik va madaniy barqarorlikni ta'minlash kabi yo'nalishlarga

⁹ UNWTO. (2024). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.

alohida e'tibor qaratiladi. Natijada, xalqaro tadbirlar va ko'rgazmalar O'zbekiston turizm sohasining rivojlanishida muhim vosita sifatida qoladi va mamlakatning global turizm iqtisodiyotidagi aqobatbardoshligini oshirishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.S. Muhammedova Madaniy turizm tarixi nazaryasi (o'quv qo'llanma) Toshkent-2023
2. Hasanov. B. (2019). Sayyohlik faoliyati va uni boshqarish. Samarqand: SamISI nashriyoti
3. Beknazarov. U. (2021). Turizm asoslar. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
4. Smith, V.L. (1989). Hosts and Guests: The Anttropolgy of Tourism. University of Pennsylvania Press.
5. UNWTO. (2024). World Tourism Barometrr. Madrid: World Tourism Organization.
6. Cooper, C, Fletcher, J, Fyall, A, Gilbert, D., \$ Wanhill, S. (2005). Tourism: Principles and Practice. Pearson Education.

